

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ZONIMIK KOMPONENTLI MAQOL VA MATALLARNING MILLIY DUNYOQARASHNI AKS ETTIRISH XUSUSIYATLARI

Egamberdiyeva Yulduz Bahodir qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

yulduzegamberdiyeva008@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli maqol va matallarning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda hayvon nomlari ishtirok etgan paremiologik birliklarning milliy dunyoqarashni aks ettirishdagi roli, ularning semantik, pragmatik va madaniy funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, ushbu birliklar orqali xalqning turmush tarzi, qadriyatlar, mentaliteti va axloqiy qarashlari qanday ifodalanishi ochib beriladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, zoonimik birliklar har ikki tilda ham umumiy insoniy tajribani aks ettirgan holda, milliy xususiyatlar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: zoonim, maqol, matal, lingvokulturologiya, milliy dunyoqarash, semantika, pragmatika, paremiologiya, metafora, obrazlilik.

Abstract. This article presents a comparative linguocultural analysis of proverbs and sayings containing zoonymic components in English and Uzbek languages. The study explores the role of animal-based paremiological units in reflecting national worldview, as well as their semantic, pragmatic, and cultural functions. It reveals how such expressions convey cultural values, traditional lifestyles, and ethical norms of a particular society. The findings indicate that while zoonymic expressions reflect universal human experience, they are significantly shaped by national mentality and cultural specificity.

Keywords: zoonym, proverb, saying, linguoculturology, national worldview, semantics, pragmatics, paremiology, metaphor, imagery.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный лингвокультурологический анализ пословиц и поговорок с зоонимическими компонентами в английском и узбекском языках. Исследуется роль данных единиц в отражении национального мировоззрения, а также их семантические, прагматические и культурные функции. Особое внимание уделяется тому, как через зоонимические образы передаются культурные ценности, традиции и моральные установки народа. Результаты исследования показывают, что такие единицы, отражая универсальный человеческий опыт, обладают ярко выраженной национальной спецификой.

Ключевые слова: зооним, пословица, поговорка, лингвокультурология, национальное мировоззрение, семантика, прагматика, паремиология, метафора, образность.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda paremiologik birliklar, xususan, maqol va matallar xalqning madaniy xotirasi va milliy tafakkurining muhim ifodasi sifatida o‘rganiladi. Ayniqsa, zoonimik komponentli maqol va matallar insonning tabiat bilan o‘zaro munosabati, hayvonot olami haqidagi tasavvurlari hamda ramziy fikrlash tizimini aks ettiradi. Ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, ularning paremiologik fondida hayvon nomlari keng qo‘llaniladi. Bu holat zoonimik birliklarning universalligi bilan birga, har bir xalqning o‘ziga xos madaniy va tarixiy tajribasini ham aks ettirishini ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli maqol va matallarning milliy dunyoqarashni aks ettirish xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zoonimik komponentli paremiologik birliklarni o'rganish lingvokulturologiya, semantika va pragmatika yo'nalishlarida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga oid tadqiqotlarida hayvon obrazlari inson tafakkuri va madaniy konseptlarni ifodalovchi muhim vosita sifatida talqin etilgan. O'zbek tilshunosligida M. Karimov, M.Dj. Daniyeva hamda Yu.B. Egamberdiyevlarning ilmiy ishlari paremiologik birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari va zoonimik birliklarning lingvomadaniy talqinini yoritishga xizmat qiladi. Shuningdek, O.V. Galimova va A.M. Jadigerovalarning tadqiqotlarida zoonimlarning etnomadaniy xususiyatlari hamda xalq mentalitetini aks ettirishdagi roli qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi zoonimik komponentli maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy tilshunoslikning bir qator nazariy va amaliy metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini lingvomadaniyatshunoslik, paremiologiya, semantika va pragmatika yo'nalishlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, tavsifiy (deskriptiv) metod qo'llanilib, ingliz va o'zbek tillaridagi zoonimik birliklar tizimli ravishda tavsiflandi. Ushbu metod yordamida maqol va matallarning strukturasi, semantik xususiyatlari hamda ularning til tizimidagi o'rni aniqlandi. Chog'ishtirma-tahliliy metod tadqiqotning asosiy usullaridan biri sifatida xizmat qildi. Mazkur metod orqali ingliz va o'zbek tillaridagi zoonimik komponentli maqol va matallar o'zaro solishtirildi, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Qiyoslash jarayonida semantik moslik, obrazlilik darajasi va milliy-madaniy xususiyatlar asosiy mezon sifatida tanlandi.

Lingvokulturologik yondashuv esa tadqiqotning markaziy metodologik tamoyili bo'lib, zoonimik birliklarning milliy dunyoqarashni aks ettirishdagi roli tahlil qilindi. Ushbu yondashuv asosida maqol va matallarda ifodalangan madaniy kodlar, ramziy ma'nolar va mentalitetga xos xususiyatlar ochib berildi. Semantik tahlil metodi yordamida zoonimik komponentlarning bevosita va ko'chma ma'nolari o'rganildi. Bu jarayonda hayvon nomlarining metaforik va allegorik funksiyalari aniqlanib, ularning ijtimoiy va axloqiy mazmuni ifodalashdagi o'rni asoslandi. Pragmatik tahlil maqol va matallarning nutq jarayonidagi funksiyalarini aniqlashga xizmat qildi. Xususan, zoonimik birliklarning baholash, nasihat berish, ogohlantirish va ijtimoiy tajribani uzatish kabi kommunikativ vazifalari o'rganildi. Shuningdek, tadqiqotda konseptual tahlil usuli qo'llanilib, hayvon obrazlari orqali ifodalangan konseptlar (masalan, *ayyorlik*, *sadoqat*, *mehnatsevarlik*) oydinlashtirildi va ularning har ikki til madaniyatidagi talqini qiyosiy jihatdan yoritildi.

Material tanlashda uzluksizlik va reprezentativlik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi maqol va matallar lug'atlari, paremiologik to'plamlar hamda ilmiy manbalardan foydalanildi. Tanlangan birliklar

zoonimik komponent mavjudligi va ularning lingvomadaniy ahamiyati asosida saralandi. Natijalarni umumlashtirish va xulosalash jarayonida induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi. Induktiv metod orqali alohida misollardan umumiy xulosalar chiqarildi, deduktiv metod yordamida esa nazariy qoidalar asosida tahlil natijalari izohlandi.

Shu tariqa, tadqiqotda qoʻllanilgan metodlar majmuasi zoonimik komponentli maqol va matallarning lingvokulturologik xususiyatlarini chuqur va har tomonlama oʻrganish imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Maʼlumki, zoonimlar hayvon nomlarini ifodalovchi leksik birliklar boʻlib, ular til tizimida nafaqat nominativ, balki kuchli konnotativ va ramziy maʼnolarga ega. Paremiologik birliklarda zoonimlar koʻpincha metafora, metonimiya va allegoriya asosida qoʻllanadi. Masalan, ingliz tilida *“A fox is cunning”* iborasi tulkinning ayyorlik timsoli sifatida qaralishini bildiradi. Oʻzbek tilida esa *“Tulkidek ayyor”* degan tushuncha mavjud boʻlib, bu yerda ham semantik moslik kuzatiladi. Shu bilan birga, ayrim zoonimlar milliy madaniyatga xos boʻlgan maʼnolarni ifodalaydi. Masalan, oʻzbek tilida *“ot”* obrazi fidoyilik va sadoqat ramzi boʻlsa, ingliz tilida bu obraz koʻproq mehnat va kuch bilan bogʻlanadi.

Zoonimik komponentli maqollarning semantikasi koʻp qatlamli boʻlib, ular bevosita va koʻchma maʼnolarda qoʻllanadi. Masalan: ingliz tilida: *“When pigs fly”* maqoli imkonsiz holatni bildirsa, oʻzbek tilidagi *“Tuyaning dumi yerga tekkanda”* maqoli ham ayni maʼnoni ifodalaydi. Bu misollar ikkala tilda turli hayvonlar orqali bir xil semantik mazmun ifodalanganini koʻrsatadi. Shuningdek, ingliz tilidagi *“The early bird catches the worm”* maqolining ham oʻzbek tilida *“Avval kelgan hoʻkiz suvning tozasini ichar”* qabilidagi ekvivalenti mavjud. Bu yerda qush va hoʻkiz obrazlari faoliyat va tirishqoqlik ramzi sifatida qoʻllanadi. Har ikki maqolda ham *“birinchi boʻlish — ustunlikka erishish”* gʻoyasi ifodalangan. Biroq obrazlar turlicha: ingliz tilida qush va chuvalchang orqali tabiiy muhit aks ettirilsa, oʻzbek tilida hoʻkiz obrazi orqali chorvachilikka asoslangan milliy tajriba ifodalanadi.

Maqol va matallar kommunikativ jarayonda muhim pragmatik vazifani bajaradi. Ular nasihat berish, baholash hamda ijtimoiy tajribani umumlashtirish funksiyalarini bajaradi. Zoonimik birliklar esa bu funksiyalarni obrazlilik orqali kuchaytiradi. Masalan, *“It hurar, karvon oʻtar”* maqoli sabr va oriqcha, asossiz, insonni ishdan qoldiradigan gap-soʻzlarga eʼtiborsizlik strategiyasini ifodalaydi. Ingliz tilidagi *“Let sleeping dogs lie”* maqoli ham oʻxshash pragmatik maʼnoga ega, yaʼni muammoni qoʻzgʻamaslik kerakligini bildiradi.

Zoonimik komponentli maqollar xalqning milliy dunyoqarashni aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda maqol va matallar tarkibidagi zoonimik birliklarning roli beqiyos, jumladan, ular insonlarning turmush tarsi, tabiat bilan aloqasi, qadriyatlarini va mentaliteti haqida muhim maʼlumot beradi. Oʻzbek tilida

chorvachilikka oid zoonimlar (*ot, qo'y, tuya*) ko'p uchrasa, ingliz tilida ovchilik va dehqonchilikka oid obrazlar ustunlik qiladi. Masalan: "*Jo'jani kuzda sanaydilar*" va "*Don't count your chickens before they hatch*" maqollari ehtiyotkorlikka undaydi va shoshqaloqlikdan tiyilish g'oyasini ifodalaydi. Har ikkala maqolda ham natijani oldindan baholamaslik, ish yakuniga yetmasdan xulosa chiqarmaslik zarurligi ta'kidlanadi. Ingliz maqolida "*jo'janing yorib chiqish*" jarayoni asosiy obraz sifatida berilgan bo'lsa, o'zbek maqolida "*kuz fasli*" yakuniy natijaning ramziy belgisi sifatida qo'llanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ba'zi zoonimlar universaldir (*it, tulki, qush*); ayrimlari milliy xususiyatga ega (*tuya, qo'y*) ba'zi maqol va matallarda semantik moslik mavjud bo'lsa-da, obrazlar turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi zoonimik komponentli maqol va matallar milliy dunyoqarashning muhim va o'ziga xos ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ular orqali xalqning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, turmush tarzi, madaniy qadriyatlari va axloqiy me'yorlari obrazli hamda umumlashtirilgan shaklda ifodalanadi. Ayniqsa, hayvon nomlari asosida yaratilgan paremiologik birliklar insonning tabiat bilan munosabati, kuzatuvlari va ramziy tafakkurini yaqqol aks ettiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zoonimik birliklar har ikkala tilda ham keng tarqalgan bo'lib, ular semantik va pragmatik jihatdan boy mazmunga ega. Bu birliklar orqali nafaqat umumiy insoniy tajriba, balki har bir xalqning o'ziga xos mentaliteti va madaniy muhitiga xos belgilar ham namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim zoonimik obrazlar universallik kasb etsa, boshqalari muayyan milliy turmush tarzi, xususan, o'zbek xalqida chorvachilik, ingliz madaniyatida esa dehqonchilik va ovchilik an'analari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan.

Shuningdek, zoonimik komponentli maqol va matallar kommunikativ jarayonda muhim pragmatik vazifalarni bajaradi. Ular nasihat berish, baholash, ogohlantirish va ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday birliklarning obrazlilik va ixchamligi esa ularning nutqdagi ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi. Zoonimik birliklar nafaqat til boyligini oshiradi, balki tafakkur, madaniyat va mentalitetni o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Ularning lingvokulturologik tahlili til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishga yordam beradi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillari misolida olib borilgan qiyosiy tahlil turli xalqlarning dunyoqarashi o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash, shuningdek, universal va milliy xususiyatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Umuman olganda, zoonimik komponentli maqol va matallarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va kommunikativ lingvistika nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Ularning chuqur tahlili turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni kengaytirish, tarjima jarayonida adekvatlikni ta'minlash va milliy xususiyatlarni to'g'ri talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Daniyeva M.Dj. Тилшуносликда лисоний бирликларнинг синтактик, семантик ва прагматик жihatлари// Turon Sciences. Qarshi, 2024. № 3. B. 41-45.
2. Egamberdiyeva Yu.B. Comparative Analysis of Zoonymic Units in English and Uzbek Proverbs and Sayings// Central Asian journal of literature, philosophy, and culture. Volume 07: Issue 02.2026. - P. 76-80.
3. Egamberdiyeva Yu.B. Ingliz va O'zbek paremeologiyasida zoonimik birliklarning kognitiv pragmatik talqini// Qo'qon DPI Ilmiy xabarлари. Volume 08: 2-son. 2026. – B. 143-146.
4. Egamberdiyeva Yu.B. **Paremiological Texts and the Linguo-Cognitive Analysis of Zoonymic Components**// Web of scientists and Scholars Journal of Multidisciplinary research. Volume 3. Is. 02. 2025. -P. 12-15.
5. Jadigerova A.M. The role of zoonyms in linguoculturology//Science Time, 2024. Vol. 3. Is. 4. - P. 162-165.
6. Johnson M. The body in the mind: The bodily basis of meaning, imagination and reaction. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. - 272 p.
7. Karimov M. Paremiologiya asoslari. - Samarqand, 2012. – 210 b.
8. **Lakoff G. Environmental Communications. Articles. – NY: University of California. 2009. – 170 p.**
9. Галимова О.В. Этнокультурная специфика зоонимической лексики, характеризующей человека (на материале русского и немецкого языков). Автореф. диссерт. канд. филол. н. - Уфа, 2004. - 24 с.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934